


Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar.

2026-yilning birinchi yarim yilligi davomida Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali, shuningdek Bankning tarkibiy bo'linmalari, vakolatli organlar taqdimnomalari va boshqa manbalardan jami 36 ta xabar va murojaat kelib tushgan. Kelib tushgan xabarlar belgilangan tartibda aloqa kanallari reyestriga ro'yxatga olingan.

Hududlar kesimida eng ko'p murojaatlar Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 8 ta murojaat qayd etilgan. Shuningdek, Surxondaryo, Sirdaryo va Andijon viloyatlaridan 4 tadan, Buxoro viloyatidan 3 ta, Toshkent, Farg'ona va Namangan viloyatlaridan 2 tadan, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy va Xorazm viloyatlaridan 1 tadan, Bosh bank bo'yicha 1 ta hamda identifikatsiya ma'lumotlari mavjud bo'lmagan 1 ta anonim murojaat ro'yxatga olingan.

Kelib tushgan murojaatlar manbalari kesimida quyidagicha taqsimlandi:

T/r	Murojaat kelib tushgan manba / aloqa kanali	Soni
1	Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va regulyatorlar xatlari	14
2	Bank tarkibiy bo'linmalari va ichki manbalar	11
3	Bank devonxonasi va boshqa yozma manbalar	3
4	Prezident virtual/xalq qabulxonasi	2
5	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishonch telefoni	2
6	Ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushgan murojaatlar	2
7	Telegram bot — SQB AntiKor (@sqbantikor_bot)	1
8	Rasmiy veb-sayt pochasi	1
	Jami	36



Hisobot davrida kelib tushgan 36 ta xabar va murojaatning 31 tasi bo'yicha xizmat tekshiruv o'tkazilgan. 3 ta murojaat yuzasidan dastlabki o'rganish ishlari amalga oshirilib, xabarlarda keltirilgan vajlar o'z tasdig'ini topmagan.

Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, 14 ta holatda murojaat yoki xabarda keltirilgan vajlar o'z tasdig'ini topgan, 20 ta holatda esa vajlar o'z tasdig'ini topmagan yoki aybdor bank xodimlari aniqlanmagan. 1 ta murojaat bo'yicha ko'rib chiqish jarayoni davom etmoqda, 1 ta anonim murojaat bo'yicha murojaatchini identifikatsiya qilish va u bilan bog'lanish uchun zarur ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi sababli belgilangan tartibda xulosa qilingan.

T/r	Ko‘rib chiqish natijasi	Soni
1	Jami kelib tushgan xabar va murojaatlar	36
2	Xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan holatlar	31
3	Tasdig‘ini topgan murojaat/xabarlar	14
4	Tasdig‘ini topmagan yoki aybdor aniqlanmagan holatlar	20
5	Ko‘rib chiqish jarayonidagi murojaatlar	1
6	Anonim deb topilgan va ko‘rib chiqilmasligi yuzasidan xulosa qilingan murojaatlar	1

Kelib tushgan murojaatlar tahlili asosida korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish, manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining oldini olish hamda xodimlarning xizmat vazifalarini halol, xolis va mas’uliyat bilan bajarishini ta’minlash bo‘yicha profilaktik choralar amalga oshirilmoqda.

Bank xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish masalalari bo‘yicha o‘quv-treninglar, suhbatlar, tushuntirish ishlari va monitoring tadbirlari davom ettirildi. Murojaatlar tahlilida nisbatan ko‘proq uchrayotgan kredit ajratish, bank xizmatlari ko‘rsatish, xodimlarning xatti-harakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi va xizmat vakolatlaridan foydalanish bilan bog‘liq yo‘nalishlarda nazoratni kuchaytirish zarurligi belgilandi.

Shuningdek, bank xizmatlarini raqamlashtirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarida inson omilini kamaytirish, aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish, xizmat tekshiruvlari natijalari bo‘yicha mas’ul xodimlar faoliyatiga huquqiy baho berish hamda profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish ishlari davom ettirilmoqda.